

JADID DRAMATURGIYASIDA SOTSIOPRAGMATIK MANZARA: DRAMATIK DISKURS, NUTQIY AKTLAR VA LINGVOKULTUROLOGIK KO‘RSATKICHLAR

Rustamov Doniyorbek Avazbekovich,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqola XX asr boshidagi o‘zbek jadid dramaturgiyasini sotsiopragmatik nuqtai nazardan tahlil qiladi. Dastlab jadid adabiyotining shakllanish omillari, ma’rifatparvarlar (Behbudiy, Avloniy, Hamza va b.)ning teatr orqali jamiyatni yangilash strategiyasi hamda “ovrupacha” badiiy uslubning kirib kelishi yoritiladi. Dramatik diskursda muallif va qahramon pozitsiyasining mustaqilligi nutqiy aktlarning bosqichma-bosqich (tayyorgarlik, konstruksiya, ifoda) dinamikasi bilan bog‘lanib, dialog va monologlar orqali ijtimoiy–ma’naviy taranglik namoyon bo‘lishi ko‘rsatiladi. Ziyolilar, boylar, amaldorlar, ruhoniylar va xizmatchilar nutqidagi status, manfaat, ta’lim va e’tiqod o‘rtasidagi ziddiyatlar, ayollar mavqei, xurofot va irim–sirimlar diskursi sahna nutqida qanday pragmatik vazifalarni bajarishi misollar bilan tahlil etiladi. Paralingvistika va noverbal ko‘rsatkichlar (imo–ishora, sahnaviy rekvizit) milliy koloritni kuchaytiruvchi semiotik indikator sifatida talqin qilinadi. Natijada jadid dramalari til–jamiyat–madaniyat kesishmasida sotsiopragmatik normalarning shakllanishi, leksik-semantik yangilanish va uslubiy differensiasiyaning tarixiy jarayonini ko‘rsatadigan boy “lingvokulturologik arxiv” sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: jadid dramaturgiyasi; sotsiopragmatika; pragmalingvistika; dramatik diskurs; nutqiy akt; dialog va monolog; paralingvistika; noverbal signallar; lingvokulturologiya; ma’rifat–jaholat oppozitsiyasi; ijtimoiy tabaqalanish; ayol obrazi; xurofot diskursi; leksik innovatsiya; uslubiy differensiasiya; “ovrupacha” uslub; teatr va modernizatsiya; milliy kolorit.

O‘zbek adabiyoti bo‘yicha dramatik matnlar tahliliga oid manbalar ichida ma’rifatparvarlar merosi va ularning ilmiy izlanishlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar salmog‘i sezilarli darajada kattadir. Buning sababi shundaki, Turkiston jadidchilik harakati hamda u natijasida shakllangan jadid adabiyoti haqidagi izlanishlar badiiy–ilmiy qiymati, eng asosiysi, tarixiy haqiqatlarga uyg‘unligi bilan ajralib turadi. O‘tgan asr boshida o‘zbek ma’rifatparvarlari yaratgan asarlar dunyoviy bilim va ma’rifatni targ‘ib etishga, inson kamoloti hamda ruhiy olamiga daxldor masalalarni ochishga qaratilgan bo‘lib, jamiyat taraqqiyotiga bevosita hissa qo‘shdi. Rus sharqshunosi A.N. Samoylovich 1916-yilda e’lon qilingan “*Dramaticheskii literatura sartov*” maqolasida “Turkistonda yangi adabiyot paydo bo‘ldi; bu men uchun kutilgan hodisa edi”, deya ta’kidlaydi¹. Mazkur fikr shuni tasdiqlaydiki, XX asr boshlarida ming yillik adabiyotimizda hukmron bo‘lgan aruz vaznidagi mumtoz andozalar o‘rnida mazmun va shakl jihatidan tamoman yangi – “ovrupacha” yo‘nalishdagi badiiy adabiyot shakllana boshladi; shu bilan birga, yuz yillikning ilk yarmidayoq o‘zbek jadid

¹ “Туркестанские ведомости” газетаси, 1982 йил 24 апрель.

dramaturgiyasining dastlabki tajribalari ham kurtak yozdi². O‘z vaqtining jadid dramasi Turkiston hayotining badiiy aks-sadosi bo‘lib xizmat qildi: an’anaviy pesalar mavzui ham, qisman xususiyoq ko‘lamda bo‘lsa-da, bevosita real voqelik bag‘ridan olinardi. Qolaversa, ko‘plab jadid komediyalari xalqning an’anaviy sahna shakllari asosida yozilgan: masxaraboz va qiziqchilar bir vaqtning o‘zida ham muallif, ham rejissyor, ham ijrochi vazifalarini bajarganidek, ilk jadid teatr arboblari ham xuddi shunday ko‘p funksiyani o‘z bo‘yniga olgan, degan ilmiy kuzatishlar mavjud.

Dramatik diskursda muallif va qahramonning mustaqil pozitsiyasi ajralib turadi; shu bois nutqiy aktlar bosqichma-bosqich tahlil qilinadi.

1-bosqich – nutqqa tayyorgarlik. So‘zlovchi fikrini ichki rejalashtiradi, ilgari uchragan o‘xshash vaziyatlarni yodga olib, maqsad va kutilgan natijani ko‘zdan kechiradi. O‘zbek muloqot an‘analarida bu bosqich tomoq qirish, bosh qashish, sukut, chuqur mulohaza kabi noverbal signallar bilan namoyon bo‘ladi. Qahramon bu paytda hali gapirmaydi, balki mushohada qiladi, sabab–oqibat bog‘liqligini tekshiradi; xususan rasmiy nutqda tinglovchining yoshi, jinsi, mansabi kabi parametrlar hisobga olinadi.

UZOQBOY (yo‘talib, turadi; uzun fotasini o‘nglaydi): “Oy, menga qara. Men ko‘nglimda bir ishni ma’qul ko‘rdim. Aychi, bunga nima deysan?” [Mazluma xotin]

2-bosqich – nutqiy konstruksiya. Adresant o‘z maqsadiga mos leksik–grammatik resurslarni tanlab, ichki nutqini me’yorlaydi; kommunikativ maqsad ko‘pincha implitsit ishoralar bilan ilgab olinadi:

UZOQBOY: “Senga xizmat qilmoq uchun biror beva-meva olsam, qanday bo‘lur?”

TANSUQOY (quti o‘chib, do‘ppisi qo‘lidan tushadi): “Hali gap shumi? Ayting!”

UZOQBOY (uylanib, tabassum qiladi): “Qo‘rqma! Uni chorilikka olaman, demayapmanmi; menga o‘zi kerak, xizmati kerak-ku!”

3-bosqich – ifoda va yetkazish. Tayyorlangan ichki nutq tovushga yoki yozuvga ko‘chiriladi. Ba’zan so‘zlovchi niyatini to‘liq bayon eta olmaydi; bunday hol tinglovchi uchun muhokamani talqin qilishni mushkullashtiradi:

UZOQBOY: “Bilaman, men ham sendek... Hozir angladimki, sen men haqimda boshqacha gumon qilding; bu gumoning xato. O‘ylaysan: xotun olgach senga qaramayman yoki seni butunlay unutib, so‘fi qilib qo‘yaman, deb – yo‘q. Men xotunni sening uchun olaman...”

Umuman, nutq harakatining natijasi adresatning idroki bilan belgilanadi: fikr qabul qilinganda, nutqiy akt ro‘yobga chiqqan hisoblanadi. Shuning uchun to‘g‘ri qabul qilish mexanizmlari dramatik muloqotda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

² Ш. Ризаев. “Жадид драмаси”. – Тошкент: “Шарк”, 1997. – Б.4

Dramatik tahlilda sujet dinamikasi, dialog va monolog markaziy o‘rinda turadi. Dialogik bloklar nutq hosil bo‘lishida lingvistik vositalarning real ishlanishini ko‘rsatadi va kommunikativ–pragmatik munosabatlarni yuzaga keltiradi. Jadidlar merosi mazkur davrning g‘oyaviy, diniy, ijtimoiy–siyosiy, madaniy va lingvistik landshaftini rekonstruksiya qilish uchun qimmatli manbadir. Markaziy Osiyoda teatrning ommalashuvi, sahna orqali muammolarni ko‘rsatish va xalq ma’naviyatini shakllantirishga urinmalar aynan jadid ijodida yaqqol ko‘rinadi. Jadid g‘oyalarining xalq orasida yoyilishida dramaturgiyaning ta’siri beqiyos bo‘lgan: jadid ma’rifatchilari amaliy ta’sir kuchini aynan sahna orqali hayotga tadbiq etishga intildi. Pyesalar vositasida ular jamiyatni diniy–dunyoviy ma’rifat, ilm–fan, madaniyat va yangilanish bilan qurollantirish, o‘zlikni anglashni kuchaytirish, ijtimoiy–ma’naviy uyqudan uyg‘otish, turmush tarzi va tafakkurni o‘zgartirishni maqsad qildilar.

Jadid dramalarining sotsiopragmatik tahlili ijtimoiy–siyosiy leksikaning pragmatik yukini, muallif va qahramon kommunikativ maqsadining ifodalanish usullarini ochib beradi. G. Leech sotsiopragmatika tushunchasini umumiy pragmatikaning muhim bo‘lagi sifatida ta’riflab, pragmatikani “tildan kommunikativ foydalanishning umumiy shartlari” deb belgilaydi va uni pragmalingvistika hamda sotsiopragmatikaga ajratadi³. Birinchisi tilning “ma’lum ma’lumotni yetkazish uchun taqdim etadigan o‘ziga xos manbalari”ni (ya’ni pragmatika–grammatika interfeysini), ikkinchisi esa “pragmatikaning sotsiologik interfeysi”ni (til–jamiyat munosabati) o‘rganadi⁴. Taguchi N. va Roever C. pragmalingvistika – pragmatik maqsadga erishish uchun ishlatiladigan lingvistik vositalar tizimi, sotsiopragmatika esa ijtimoiy omillar va pragmatika o‘rtasidagi bog‘liqlik (masalan, iltifot bildirishning mos sharoitlari, so‘zlovchi–tinglovchi o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar) bilan shug‘ullanishini ta’kidlaydi⁵. Strazny ham shunga yaqin tarzda: pragmalingvistika – tilning “tarkibiy resurslari”, sotsiopragmatika – ularni ijtimoiy vaziyatlarga nisbatan tanlashni tartibga soluvchi me’yorlar deya izohlaydi. Trosborg⁶, Crystal⁷, Culpeper⁸, Swann⁹ va boshqalar til amaliyotiga kuch, jins, ijtimoiy masofa singari omillar qanday ta’sir ko‘rsatishini uqtiradi; Aijmer & Andersen sotsiopragmatika doirasini lingvistik antropologiya,

³ Angermuller, J., Maingueneau, D., & Wodak, R. (Eds.). (2014). *The discourse studies reader: Main currents in theory and analysis*. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company. 259

⁴ Leech, G. (1983). *Principles of pragmatics*. New York: Longman.

⁵ Taguchi N., Roever C. *Second language pragmatics*. – Oxford University Press, 2020.

⁶ Trosborg, A. (1995). *Interlanguage pragmatics: Requests, complaints, and apologies*. New York: Mouton de Gruyter.

⁷ Crystal, D. (2008). *A Dictionary of linguistics and phonetics* (6th ed.). USA: Blackwell.

⁸ Culpeper, J. (Ed.). (2011). *Historical sociopragmatics*. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company

⁹ Swann, J, Deumert, A., Lillis, T. & Mesthrie, R. (2004). *A Dictionary of sociolinguistics*. Edinburgh: Edinburgh University Press.

variatsion pragmatika, CDA va sotsiolingvistika bilan uzviy bog‘laydi¹⁰. Natijada sotsiopragsmatika nutq strategiyalarining majburlov darajasi, ijtimoiy maqom, hokimiyat va masofa kabi o‘zgaruvchilarga mos adaptatsiyasini, hatto muloqotning ketma-ket tuzilishiga ta’sirini (Blum-Kulka¹¹) yoritadi¹².

Qisqa xulosa: sotsiopragsmatika – til va ijtimoiy kontekstning o‘zaro bog‘liqligini, me’yor va e’tiqodlarning strategiyalar tanloviga qanday yo‘naltiruvchi tamoyillar sifatida xizmat qilishini tahlil qiladi. Hozirgi tadqiqotlarda u (i) nutqni sotsiologik yo‘naltirilgan o‘rganish, (ii) hokimiyat kabi omillarga ustuvor e’tibor, (iii) strategiyalarning mahalliy sharoitga mos o‘zgaruvchanligini o‘z ichiga oladi; ayni ish esa mikro–matn darajasida kuch ko‘rsatkichlarini ham ko‘zda tutadi¹³.

Jadid pyesalaridagi asosiy sotsial guruhlar: ziyo-lilar (ilm olgan yoshlar), domlalar/eshonlar (diniy bilim egalari), xizmatchilar (ko‘pincha savodsiz), boylar (ilmsiz, ammo mol-dunyo sohibi), amaldorlar (manfaatparast, ko‘pincha mutaassib), yoshlar (ko‘pi savodsiz, kayf–safoga berilgan). Muloqotlar aynan shu qatlamlar kesishmasida kechadi; dialog va monologlar qahramonlarning xarakterini, dunyoqarashini ochish imkonini beradi. Ziyoli obrazlar ko‘pincha xalqning ma’naviy qoloqligidan iztirob chekadigan, ma’rifat targ‘ibiga bel bog‘lagan g‘oyaviy tashuvchilardir¹⁴.

1-guruh – Ziyoli obrazlar.

Ziyoli: “...millatga kerak bo‘lgan ilmlar haqida so‘zlamochiman... iltimos, quloq bering – bu so‘zlar siz va millat nafidadir.” [Behbudiy, *Padarkush*]

Davronbek: “Yevropada o‘qib yurganimda gazitalarni ko‘rib quvongan edim... qaytib kelsam – “eski hammom, eski tos”: ilm va maorifdan asar ham yo‘q.” [A. Avloniy, *Advokatlik osonmi?*]

Kamol: “To‘rt tomong ham o‘t... bu xurofotlar uyasini ko‘rmagan bo‘lsam edi!” [A. Avloniy, *Biz va Siz*]

Bu nutqlar mazmun markazida qoloqlikdan norozi-lik, ma’rifatni ulashish istagi, jaholatdan iztirob yotadi. Leksik maydonda *jaholat*, *qoloqlik*, *taraqqiyot*, *urfon*, *ilm–ma’rifat*, *hidoyat* kabi birliklar faol.

¹⁰ Aijmer, K. & Andersen, G. (2012). Introducing the pragmatics of society. In G. Andersen, & K. Aijmer (Eds.), *Pragmatics of society* (pp.1-27). Berlin: Walter de Gruyter.

¹¹ Haworth, K. (2006). The dynamics of power and resistance in police interview discourse. *Discourse & Society*, 17(6), 739–759. <https://doi.org/10.1177%2F0957926506068430>. Beeching, K., & Woodfield, H. (Eds.). (2015). *Researching sociopragmatic variability: Perspectives from variational, interlanguage and contrastive pragmatics*. New York : Palgrave Macmillan

¹² Stranzy, P. (Ed.). (2005). *Encyclopedia of linguistics* (Vol. 1). New York: Oxen

¹³ Blum-Kulka, S. (1997). Discourse pragmatics. In T. A. van Dijk (Ed.), *Discourse and social interaction*, 2, (pp.38-63). Thousand: Sage.

¹⁴ Schmitt, N. (Ed.) (2002). *Applied linguistics*. London: Arnold.

2-guruh – Eshon/mulla/domla obrazlari.

Eshon: “Shariat buyursa-chi? Ota-onang bergan, imom nikoh qilgan... Ular bilmaydimi?” [H. H. Niyoziy, *Zaharli hayot yoki ishq qurbonlari*]

Boylar nutqi ham maishiy–iqtisodiy ustunlikni oqlashga intiladi; bank–chilen kabi realiyalar ijtimoiy kapitalga ishora qiladi:

Boy: “...odamlar boyni mulldan ko‘proq izzat qiladi... banklar ko‘paydi... kim iltifot olmasa, pul ham berilmaydi...”

Karimboy: “Yevropada o‘qidim deb ko‘nglingga kelganini qila berasanmi? Bobolar “teng tengi bilan...” degan.”

Shu tariqa, jadid pyesalarida sotsial nutqning umumiy profili – status, manfaat, ta’lim va e’tiqod o‘rtasidagi taranglikni ochib beradi.

Markaziy mavzulardan yana biri – ayollar huquqining poymol etilishi. Ko‘pchilik pyesalarda bu hol ilmsizlik, ma’naviy qashshoqlik va johillik oqibati sifatida talqin qilinadi. Ayol nutqida sehr–jodu, irim–sirimlar bilan bog‘liq amallar attenuatsiya yoki muammoga “yechim” sifatida suflyorlik qiladi: *sehr, azayimxon, o‘qitmoq, qoqitmoq, fol ko‘rmoq, nazr–niyoz, qaytarma, dam soldirish, bibi sehanba* va b.

Salima: “O‘g‘lingizga sehr qilingan bo‘lsa kerak, zo‘r domla topib o‘qitib qaytaring.”

Karomtoy: “Yo‘tal tomoqniki... ammo kundoshing jodu bergan bo‘lsa ehtimol... Mulla Muhammadi – katta duoxon... Zulayhobibi – qaytarma qiladi...”

Sukut o‘zbek muloqotida mustaqil lisoniy belgi bo‘lib, turli illokutsiyalarni ifodalashi mumkin; ba‘zan u maqsadli strategiya vazifasini bajaradi. “*Baxtsiz kuyov*”dagi suhbat bunga yorqin misol: Abdurahim ogohlik va dalda pozitsiyasidan turib gapirar ekan, Solih ko‘proq sukut va qisqa javoblar bilan odob me‘yoriga mos reaksiyani tanlaydi; bu – xarakter tipologiyasini ham ochadi.

Abdurahim: “Hozirgi zamonda qaysi yigit qarzdor bo‘lmay uylanayapti?... Senga qulay – “zamona to‘yi”dek ko‘p ham ketmaydi, xo‘p, deyaver.”

Solih (o‘ylanib): “...Otam o‘rniga otamsiz; nima qilsangiz, ixtiyor o‘zingizda...”

Simmetrik vaziyatlarda esa ifoda ochiq, maqsad aniq bo‘ladi; fojiviy yakun oldidagi monolog–harakatlar ketma-ketligi buni tasdiqlaydi (Solihning Rahimaga murojaati va o‘zini o‘ldirishi sahnasi).

Xulosa qilib aytganda, jadid dramaturgiyasi – lingvokulturologik arxiv bo‘lib, unda til–jamiyat–madaniyat o‘qidagi aloqalar sotsiopragmatik darajada jonli namoyon bo‘ladi. Nutqiy aktlarning bosqichma-bosqich dinamikasi, stereotip va urf–odatlar, ayol obrazi, sotsial qatlamlar nutqi, ma‘rifat–jaholat oppozitsiyasi va noverbal signallar tizimi pyesalarda ijtimoiy semantikani aniq belgilaydi. Shu bois jadid dramalari nafaqat

sahna san'ati taraqqiyotini, balki til taraqqiyoti, uslubiy differentsiatsiya va pragmatik me'yorlarning tarixiy o'zgarishini ham ilmiy dalillar bilan ko'rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. “Туркестанские ведомости” газетаси, 1982 йил 24 апрель.
2. Ш. Ризаев. “Жадид драмаси”. – Тошкент: “Шарк”, 1997. – Б.4
3. Angermuller, J., Maingueneau, D., & Wodak, R. (Eds.). (2014). The discourse studies reader: Main currents in theory and analysis. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company. 259
4. Leech, G. (1983). Principles of pragmatics. New York: Longman.
5. Taguchi N., Roeveer C. Second language pragmatics. – Oxford University Press, 2020.
6. Trosborg, A. (1995). Interlanguage pragmatics: Requests, complaints, and apologies. New York: Mouton de Gruyter.
7. Crystal, D. (2008). A Dictionary of linguistics and phonetics (6th ed.). USA: Blackwell.
8. Culpeper, J. (Ed.). (2011). Historical sociopragmatics. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company
9. Swann, J., Deumert, A., Lillis, T. & Mesthrie, R. (2004). A Dictionary of sociolinguistics. Edinburgh: Edinburgh University Press.
10. Aijmer, K. & Andersen, G. (2012). Introducing the pragmatics of society. In G. Andersen, & K. Aijmer (Eds.), Pragmatics of society (pp.1-27). Berlin: Walter de Gruyter.
11. Stranzy, P. (Ed.). (2005). Encyclopedia of linguistics (Vol. 1). New York: Oxen
12. Blum-Kulka, S. (1997). Discourse pragmatics. In T. A. van Dijk (Ed.), Discourse and social interaction, 2, (pp.38-63). Thousand: Sage.
13. Schmitt, N. (Ed.) (2002). Applied linguistics. London: Arnold.